



**ZAMONAVIY KLINIK
LABORATOR TASHXISI
DOLZARB MUAMMOLARI**
xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman



27 dekabr 2022 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'Liqli saqlash vazirligi

www.ssv.uz

Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

4. Kucheryavenko A.F., Spasov A.A., Naumenko A.V. Yangi gipoglikemik birikma miglidolning eksperimental qandli diabetdagi gemostaz parametrlariga ta'siri. Endokronologiya muammolari No 1. - 2015.- 61-jild.- 51-56 бетлар.

5. Kurbonova Z.Ch. Yuldasheva N.B., Zokirova N.B. Fastokin pestisidini oshqozonga ta'sirini o'rganish // Biofizika va biokimyo muammolari. Toshkent, 2021. –B. 26-27.

6. Kurbonova Z.Ch Zokirova N.B. Ostanauqulov Sh.F. Fastokin pestisidini jigarga ta'sirini o'rganish // Biofizika va biokimyo muammolari. Toshkent, 2021. – B. 19-20.

7. Suxov I. B., Chistyakova O. V., Shipilov V. N., Doilnitsyn A. M., Shpakov A. O. Streptozotsinli diabetga chalingan kalamushlarda miyada serotonin va dopamin tomonidan adenilaklazing fazoviy xotirasi va tartibga solinishi. Rossiya fiziologiya jurnali. I. M. Sechenov.- No 3.- 2015.- 101-jild.- B. 279-290.

8. Kurbonova Z.Ch., Hidoyatov K.U., Babajanova Sh.A. Comparative analysis of the effectiveness of lipid — lowering drugs in the treatment of ophthalmic diabetes on the basis of clinical and laboratory studies // Молодой учёный, Казань. –2021. С. 63-64.

KLINIK LABORATOR DIAGNOSTIKADA YANGI TEXNOLOGIYALAR

Olimova M.M., Baxtiyarova A.M.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Laboratoriya diagnostikasi aholi salomatligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Laboratoriyada davolash ishlari olib borilmaydi, ammo u shifokor va bemorga davolanish bo'yicha to'g'ri qaror qabul qilishga, uning samaradorligini baholashga va ko'p hollarda kasallik rivojlanishining dastlabki bosqichlarida patologiyani aniqlash orqali kasallikning boshlanishini oldini olishga yordam beradigan diagnostik ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Laborator diagnostika hujayra va molekulyar darajada bemor tanasining holati haqida ma'lumot beradi. Bu shifokorga kasallikning etiologiyasi va patogenezi chuqurroq tushunish imkonini yaratadi. Laboratoriya faoliyatining samaradorligi olingan ma'lumotlar mazmuni, unda olingan natijalarning ishonchliligi va o'z vaqtidaligi bilan baholanadi. Samaradorlikni ta'minlashga yangi, ko'proq ma'lumot beruvchi testlarni joriy etish, xodimlarni bilim saviyasini oshirish, texnik tahlil jarayonini avtomatlashtirish orqali erishiladi.

Klinik laborator diagnostika kasalliklarning klinik kechishini farqlash va metabolik jarayonlarning buzilishlarini bartaraf etish uchun turli xil biologik materiallar bo'yicha tez va samarali tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradigan zamonaviy diagnostika uskunalari bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Laboratoriyada yuzlab tahlillari bajarish mumkinligi hisobga olgan holda, avtomatlashtirilgan usullarini joriy etish natijasida samaradorlik bir necha marta oshdi.

Hozirgi kunda klinik diagnostik laboratoriyada har oyda 35 mingdan ortiq tekshiruvlar o'tkazilib, ularning 89,9 % avtomatik analizatorlarda o'tkaziladi.

Tadqiqotlar assortimenti deyarli barcha diagnostik sohalarida 350 dan ortiq turdagi tadqiqotlar bilan ifodalanadi.

Laboratoriyada aholini ommaviy skriningni amalga oshirish uchun yuqori samaradorlikka, past invazivlikka ega, arzon bo'lgan laboratoriya tadqiqot usullari qo'llaniladi. Laboratoriyada mavjud bo'lgan asbob-uskunalar favqulodda vaziyatlarni tezkor diagnostika qilish imkonini beradi. Laboratoriya ekspress diagnostikasi o'ziga xos xususiyatga ega. Laboratoriya ekspress usullarining texnik xususiyati shundaki, ko'p vaqt talab qilmaydigan va minimal material hajmini talab qiladigan usullardan foydalanish kerak.

Turli xil patologik holatlar bilan birga keladigan asoratlarning uchrashi doimiy ravishda o'sib bormoqda. Shuning uchun intensiv terapiya faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan laboratoriya majmuasi, ya'ni kislota-ishqor balansi va qondagi gazlar analizatori, elektrolitlar tarkibi analizatori, koagulometr, agregometr, tromboelastograf, biokimyoviy analizatorhar har bir shifoxonada bo'lishi kerak.

Xulosa. Shunday qilib, zamonaviy tibbiyotni laboratoriya va instrumental diagnostikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Adabiyotlar.

1. Курбонова З.Ч., Бабаджанова Ш.А. Цитологик ташхисга кириш: ўқув қўлланма. Тошкент, 2022. 137 б.

2. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxisga kirish: o'quv qo'llanma. Toshkent, "Hilol nashr", 2021. 152 b.

3. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Laboratoriya ishi: o'quv qo'llanma. Toshkent, 2022. 140 b.

4. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova S.A. Sitologik tashxis asoslari: o'quv – uslubiy qo'llanma. Toshkent. - "TTA nashriyoti", 2022. -47 b.

5. Saidov A.B. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Gematologik kasalliklar sitologik diagnostikasi: o'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent, Toshkent tibbiyot akademiyasi bosmaxonasi, 2021. – 56 b.

NASLIY GEMOLITIK ANEMIYASI BOR BEMORLARDA IMMUNOGLOBULINLAR KO'RSATKICHLARINING AHAMIYATI

Otaboyev O.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali.

Aniqlanishicha, har qanday anemiya immunitet tizimi faoliyatining buzilishiga olib keladi va infeksiya, shu jumladan virusli, gemoliz xavfini oshiradi, bu esa bemorlarning, shu jumladan β -talassemianing kechishini yomonlashtiradi. Shunday qilib, bemorlarda yuqumli kasalliklarga moyillik kuchayadi. Shu sababli, gemolitik anemiyada immun tizimi ko'rsatkichlarining xelat terapiyasi bilan bog'liqligini o'rganish katta qiziqish uyg'otadi.

Dolzarlighi. β -talassemiyali bemorlarda infeksiyalarga sezuvchanlik, yuqumli kasalliklarga tez beriluvchanlik kuzatiladi. Shu sababli ushbu turdagi gemolitik anemiyalarda gumoral immunitet ko'rsatkichlarining normallasuviga erishish